



## O‘ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O‘RNI

**Nazarova O‘rozhol Xudoyberdiyevna**

*Qumqo‘rg‘on tuman 1- son texnikumi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

*e-mail: orozholnazarova@gmail.com*

*tel.raqami: +998915784175*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning xalqimiz va millatimiz kelajagi bo‘lgan til haqida fikr mulohaza yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *taraqqiyot, jamiyat, xalq, millat, tarix, kelajak, ona tili, ma‘rifat, tarbiya, ta‘lim, so‘z.*

**Аннотация:** *В этой статье рассматривается мнение Алишера Навои о языке, который является будущим нашего народа и нации.*

**Ключевые слова:** *прогресс, общество, нация, нация, история, будущее, родной язык, просвещение, воспитание, образование, слово.*

**Annotation:** *this article reflects on the language of Alisher Nawai, the future of our people and our nation.*

**Keywords:** *Progress, Society, People, Nation, history, future, native language, education, education, word.*

Darhaqiqat, buyuk bobomiz Alisher Navoiy aytganidek: “Til- shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma‘qul bo‘lib chiqsa – tilning ofatidir”... O‘zbek tili qadimdan boy tarixga ega. U qadimgi turkiy til, so‘ngra Chig‘atoy tili nomi bilan yuz yillar davomida yashab keldi. Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi allomalar tilimizni rivojlantirishda hissa qo‘shdi. Keyinchalik, jadidlar davrida ham o‘zbek tili orqali ilm fan, madaniyat, matbuot rivojlandi. Musaqillik yillarida esa tilimiz yanada erkinlikka erishdi rasmiy hujjatlar, qonunlar, ta‘lim va diplomatiya hamda xalqaro maydonlarda o‘zbek tili faol ishlatilmoqda. Bugun esa u kompyuter, dasturlash, sun‘iy intellect, fan va texnologiyalarda o‘z o‘rnini topmoqda. Bu esa o‘zbek tilining zamonaviy taraqqiyot bosqichiga chiqqanidan dalolat beradi.

...Garchi aqlim oldi ne-ne daholar,

Nazm davlatida sizdek sulton yo‘q.

Padari buzrukdek qilmish duolar,

Sizdek menga aziz bir mehribon yo‘q. [1]

Til uzoq davrlar o‘tishi bilan kishining ehtiyojiga muvofiq ravishda o‘zgarib, boyib brogan. Kishi tilni taraqqiy etishi bilan birga, uni mukammallashib borishi ham kishi bilm va tajribasining takomillashishiga hamda ajdoddan avlodga o‘tishiga imkon bergan. Natijada fan, madaniyat, texnika vujudga kelgan va taraqqiy etgan, ya‘ni kishilik jamiyati rivojlangan.

Tilning taraqqiy etishi deganda lug‘at boyligini oshishi, ichki qonun qoidasining qulaylashib borishi tushuniladi.

Jamiyat taraqqiyoti til rivojiga ta‘sir ko‘rsatgan. Chunki til jamiyat taraqqi yoti bilan chambarchas bog‘liq.

Yo‘qdir turk nazmida siz qadar dah,  
“Xamsa”dan buyukroq asar hamon yo‘q.  
Yo‘qdir “Xazoin ul-manoiy”– yakto!  
Sizsiz Xurosn-u buyuk Turon yo‘q... [1]

Til taraqqiyotiga qo‘shni xalq bilan bo‘lgan turli munosabat– savdo-sotiq, madaniy aloqa, shuningdek, urush ham ta’sir qiladi. Masalan, hozirgi ingliz tili lug‘at boylidagi so‘zning taxminan 30 foizi sof inglizcha bo‘lsa, o‘zbek ti lidagi 57 foiz so‘z turkey qatlamga mansub, qolgani chetdan o‘zlashgan.

Tilda o‘zlashma so‘z asosida yoki qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘z ham shu tilning boyligi sanaladi.

Angliya, AQSH, Kanada, kabi mamlakat fuqarosi, asosan , ingliz tilida, ispani ya, Kuba, Chili, Meksika fuqarosi, asosan, ispan tilida gaplashadi. Demak, tilning taraqqilish, ishlatilish doirasi va nomlanishi har xil.

Juda ko‘p til hozirgi kunda qo‘lanilib kelishi bilan bir qatorda ba’zi til butunlay iste’mol chiqib ketgan va bizga yozma yodgorlik orqali ma’lum. Shu asosda til tirik va o‘lik tilga bo‘linadi.

Hozir kishilar gaplashadigan til tirik til hisoblanadi. Masalan o‘zbek tili, ukrain tili, nemis tili, qozoq tili va hokazo.

Qadimda qo‘llanib, shu tilda gaplashgan xalqlarning turli sabab bilan yo‘q bo‘lib yoki boshqa xalqqa qo‘shilib, o‘zga tilda gaplashib ketishi natijasida iste’moldan chiqib, muomilada ishlatilmaydigan bo‘lib qolgan, bugungacha faqat yozma manba orqali yetib kelgan til o‘lik til deyiladi. Masalan, lotin, qadimgi hind yoki sanskrint, qadimgi slavyan, qadimgi xorazmiy, qadimgi arab, qadimgi fors, so‘g‘d tili boshqalar shular jumlasidan. [2]

Tilim– mening g‘ururim,  
So‘zim- mening nurim.  
Navoiydek so‘z aytmoq,  
Bu menga faxr, umid, sururim.

Ey farzand, agar shoirlik qilmoqchi bo‘lsang harakat qil, toki so‘zing oson va foydali bo‘sin, g‘omiz mushkul so‘din parhez qilg‘in va o‘zing bilib, o‘zgalar uning sharhiga muhtoj bo‘lg‘udek so‘zni aytmag‘il, nedinkim she‘r aytg‘on kishi xalq uchun aytur va o‘zi uchun aytmas. Bir xil vazn bir xil qofiyaga qanoat qilmag‘il san’atsiz va tartibsiz she‘r aytmag‘il. She‘rda zarb, ya’ni vazni to‘la bo‘lsa, yaxshi bo‘lur. Shoirlarning odatiga ko‘ra ularning san’atlaridin g‘ofil bo‘lmag‘il, chunonchi, shoirlarning zarur usullari shulardin iborat. Ammo so‘zingning baland bo‘lishini istasang, o‘t, olov so‘zlarni istiorot shaklida ishlatg‘il va kishilar tushunishi mumkin bo‘lg‘on til bila bayon qilg‘in.[3]

Asl durdona tilim  
Sen millatning mulkisan  
Fe‘l-atvori, ruhini,  
Aks ettirgan ko‘zgusan,  
Donishmand, dono tilim,  
Asl durdona tilim, ...

Bugungi globallashuv davrida til madaniyati alohida e’tibor talab qilmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida so‘zlashuvning buzulishiga, begona so‘zlar aralashuvi, ijtimoiy tarmoqlarda “chat” tilinig kengayishi xavotir uyg‘otmoqda. Til madaniyati deganda, biz nafaqat to‘g‘ri talaffuz va yozuvni, balki go‘zal, ma’daniyatli, ma’no, muloqotni tushinamiz. Yoshlar tilni noto‘g‘ri ishlatmasligi, so‘z boyligini oshirishi, badiiy asarlar orqali til madaniyatini rivojlantirishi kerak. Til bu fikr ko‘zgusi. Tilni e’tiborsiz qoldirish– tafakkurni sustlashtirish demakdir. Shuning uchun har bir o‘quvchi, har bir blogger, har bir yosh– o‘z tilini toza, go‘zal va boy uslubda ishlatishga odatlanishi kerak.

Turk tilidan so‘zlashmoqdir sharaf,

So‘zimda jilo topur har harf.

Tilimni yuksak tutdim men,

Chunki tilda jonim, dilim men.

Til– millatning ruhi. Inson o‘z tilida fikrlaydi, orzu qiladi, sevadi. Til yo‘qolsa–xalqning o‘zi ham yo‘qoladi. Shuning uchun har birimiz ona tilimizni ardoqlashimiz, uni toza va go‘zal saqlashimiz kerak. Chunki til– o‘tgan ajdodlar merosi, kelajak avlodning ishonchidir.

Til– elning ko‘zgusidir, yoru so‘zi,

So‘zni asra, u sening yuzing o‘zi.

Navoiy aytgan– tilni qadrlagin,

Chunki tilda yashar xalqning ruhi, izi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ( “Gulxan” jurnali 2019-yil 2-soni “So‘z mulkining sohibqironi” Barot Boyqobilov she’ri.)
2. (Baxtiyor Mingliyev, O‘ral Xoliyorov “O‘zbek tilida universal qo‘lanma” Toshkent “Akademnashr” 2011 3 nashr kitobidan 4-bet )
3. (Kayqovus “Qobusnoma” “O‘QITUVCHI” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent–2015 144-bet)
4. ( A.NURMONOV.A.SOBIROV. SH.YUSUPOVA “HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI” “SHARQ” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent– 2004 17-bet.